

**Guliston davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika” kafedrası, p.f.f.d PhD,
dotsent Samatova Dilrabo Yusufovna
taqrizi ostida**

Khudoyberdiyeva Sevinch Muzaffar kizi
Gulistan state pedagogical institute
Uzbekistan
Email:
xudoyberdiyevas8082@gmail.com

BOLAGA TA'LIM BERISHNING SAMARALI USULLARI VA TEXNIKALARI

ANNOTATSIYA: 21-asr texnikalar asri.Zamon rivojlanib borgani sari insonlar ongi yuksak taraqqiy etib bormoqda.Hozirgi zamon yoshlari olov, bu olovni yoqish biz pedagoglar mahoratiga bog'liq. Texnikalar rivojlanib borayotgan bu zamonda o'quvchilarga bilim berish juda ham mrakkablashib bormoqda. Ushbu maqolada hozirgi zamon bolalariga qanday qilib samarali bilim berish uchun qo'llaniladigan usullar va texnikalar bayon etilgan.

KALIT SO'ZLAR: OTM, Psixologik travma, metod, korrupsiya, pedagog, individual, Vazirlar Mahkamasi.

KIRISH. Maktablar, bog'chalar, o'quv muassasalari zamonaviylashib bormoqda[1]. Ayniqsa bu o'zgarishlarni xususiy maktablarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Texnikalarsiz bola ongiga ma'lumot yetkazib berishimiz juda murakkablashib bormoqda[2]. Bunga sabab ular tug'ilganidayoq texnikalarga onalar beparvoligi sababali o'ralib qolishmoqda. Bu esa bolaning xotirasini susaytirib, tajang qilib qo'ymoqda[3]. Ular o'ynayotgan o'yinlarda ossongina erishilayotgan yutuqlariga haqiqiy hayotda ham qanday yo'l bilan bo'lmasin barcha narsalarga osson erishini shior qilib qo'ymoqda[4]. Juda ko'p yoshlar sport sohasida muvaffaqiyatga erishib OTM muassasalari talabalari bo'lishmoqda[5]. Bu esa sport sohasida korrupsiyaning aralashuviga sabab bo'lmoqda.2018-yil 421 nafar, 2019-yil 1213 nafar, 2020 -yil 2367 nafar yoshlar OTM larga o'qishga kirishgan. O'tgan 3 yilda imtiyozlardan foydalanuvchilar soni 5 barbarian ortgan[6]. Qayd etilishicha OTM larga kirish uchun imtiyozlar asosida tavsiya etilgan 1921 nafar sportchi kasbiy(ijodiy) imtihon o'tkazilgan[7]. Natijalarga ko'ra ishtirokchilarning 213 nafari (11 foizi) maksimal ballning 36 foizini ham to'play olmagan. Yana 41 nafari ijodiy imtihon talablarini umuman bajara olmagan[8]. G'olib va sovrindorlarning 147 nafari turli bahonalar bilan ishtirok etmagan. Bu shunchaki ko'z boyamachilik. Chunki bu imtiyoz egalari OTM ga bilagidagi kuchi, ko'krigidagi nishoni bilan emas, cho'ntagidagi puli bilan talaba bo'lishgan. Juda ko'p yoshlar puliga ishonib, yoki orqasidagi mansabdor qarindoshlariga ishonib masulyatni bo'yniga olishmayapti, o'qishni hohlamay qolishmoqda. Bunday holatlarning kamayishi uchun biz pedagoglar sifatli ta'lim bera olishimiz kerak. Biz pedagoglar bolaga bilim bilan birgalikda tarbiya ham bera olishimiz lozim. Tarbiyani qay usulda yetkazib berish Pedagogning mahoratiga bog'liq. Abdulla Avloniy aytganidek " tarbiya biz uchun yo hayot, yo najot, yo falokat masalasidir". Pedagog bolaga biror bir narsani o'rgatayotganda ayniqsa tarbiya masalasida o'quvchiga o'zi avvalo o'sha narsani o'zi qilib o'rgatishi kerak.Buni esa turli xil metodlar orqali bajarsa bo'ladi. Pedagoglarning eng katta xatosi o'quvchiga ananaviy usulda ta'lim berishidir.Bu usulda o'quvchi faqat o'qishi kerak, intizomli bo'lishi lozim. Agar bu talablarga javob bermasa jazolash usulidan foydalanish kerak. Bu katta xató chunki doimiy jazolangan bolada psixologik travmalar paydo bo'lishni boshlaydi. Buning oqibatida bolada darsda tinch o'tirmaslik, doimiy ravishda bosh ko'tarish, jizzakiliklar paydo bo'la boshlaydi. Ayrim o'quvchilarda yoshligidan travmalar bo'lganligi, yoki oila muhiti nosog'lom bo'lganligi sababi o'quvchi ta'lim olishni va intizmoni, bo'ysinishni hohlamaydi. Bunday bolalar bilan ishlash juda qiyin va murakkab ish. Ular bilan individual ishlash lozim. Darsni tort bosqichga bo'lib o'tish eng samarali yo'l. Birinchi bosqich bolaga bilim berishdan avval diqqatni jamlovchi

mashqlar bajartirish kerak. Masalan "ruchkani ol" o'yin metodi. Bunda o'qtuvchi ko'z, quloq, bosh va boshqa tana a'zolarini aytadi va so'ng ruchka deydi. Bolalar ruchkani ushlab olishlari lozim. Bunda o'quvchilar diqqati o'qtuvchiga qaratila boahlaydi. Metodlar qo'llayotganda bola yoshini ham inobatga olish lozim. Katta yoshdagi bolalar bilan ko'proq diqqatni jamlovchi metodlar qo'llash eng maqbul yo'l. Kichik sinflar bilan ishlashda ularga ko'proq o'yin metodini qo'llash lozim. Chunki ular juda tez zerikib qolishadi bir xil dars mashg'ulotdan. Dars o'tish jarayonida ikkinchi bosqich o'tilgan mavzularni takrorlab olish. Chunki "Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir" Bilim takrorlanib turmasa o'quvchi xotirasidan tezda o'chib ketadi. Uchunchi bosqich mavzuni tushuntirish. Pedagog mavzuni tushuntirishda eng avvalo e'tibor qaratadigan masalasi bu o'tiladigan mavzuni hayotga bog'lab o'tishdir. Bola ko'rgan narsasini eslab qoladi. Agar mavzu hayotga bog'lanib o'tilsa o'quvchi o'sha narsani ko'chada ko'rib qolsa ham o'qtuvchi gaplarini eslaydi. To'rtinchi bosqich uyga vazifa berish. Uyga vazifa berayotganda o'quvchiga ko'p vazifa berish xato. Chunki u faqat bitta fandan emas tortta yoki beshta fandan dars qilish kerak. Shunday topshiriq berishi kerakki bola uyda bu topshiriqni zerikmasdan bajarishi kerak. Bu topshiriq ijodiy tomonga yo'nalsa yanada qiziqarliroq bo'ladi.

MATERIAL VA USLUBLAR. Davlatimiz ham o'qtuvchi pedagoglar va o'quvchi yoshlarga juda ko'p shart sharoitlar yaratib bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: xalq ta'limi xodimlarining shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayonini qamrab olgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish mexanizmi. Vazirlar Mahkamasining "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 28-dekabrda 1026-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin. Pedagoglar bilim saviyasini yanada oshirish maqsadida "malaka oshirish" amaliyotlari joriy etildi.

Respublikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalari joriy etilishi yoshlarni yuksak axloq va kuchli bilim sohibi hamda vatanparvarlik ruhida voyaga yetishida yaratilgan imkoniyatning muvaffaqiyat asosi, degan ishonchdamiz. Yana bir quvonarli xabar shundaki, ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yildan boshlab magistratura va doktorantura bosqichlari uchun Prezident stipendiyasi kvotasini ikki barobarga oshiramiz. Ishonchim komilki, bunday imkoniyat va imtiyozlarga avvalo yangi Renessans poydevorining bunyodkorlari sazovor bo'ladi, deb ta'kidlagan davlat rahbarining ishonchi, yangi yil arafasida yoshlar uchun yaratilgan bunday imkoniyatlar yangi O'zbekistonning Renessans yo'lidagi yangi va ildam qadami bo'ldi.

NATIAJALAR VA MUHOKAMALAR. Bolani o'qitishda samarali usullarni qo'llash juda muhim, chunki ular bolalar o'qish va o'rganish jarayonini qulay va qiziqarli qiladi. Mana ba'zi samarali usullar:

1. O'yinlar orqali o'qitish

O'yinlar bolalar uchun o'qishni qiziqarli va interaktiv qilishning samarali usuli hisoblanadi. O'yinlar orqali bolalar o'qish, yozish, hisoblash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin. Misol uchun:

- So'z o'yinlari (anagrammalar, rasmi kartalar)
- Shaxsiy o'yinlar (raketalar, ko'cha o'yinlari)

2. Vizual materiallar va rasmlar

Bolalar ko'proq vizual materiallarni yaxshi anglaydilar. Kitoblar, plakatlar, rasmlar va videolar yordamida darslar yanada qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Bu usul bolalarning tasavvurini va eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Harakat orqali o'qitish (kinestetik metod)

Ba'zi bolalar faqat o'qib emas, balki harakat qilish orqali o'rganadilar. Ularni amaliy mashqlar va tajribalar yordamida o'qitish samarali bo'ladi. Masalan, bolalarni jismoniy faoliyatlar orqali o'rgatish, rasm chizish, yoki taqdimotlar orqali o'rganishni kuchaytirish.

4. O'z-o'zini ifoda qilish va muhokama

Bolalarni fikrlarini ifoda etishga rag'batlantirish, ularga savollar berish va muhokama qilish ularda mustaqil o'ylash qobiliyatini rivojlantiradi. "Nima uchun?" va "Qanday qilib?" kabi savollar yordamida ularning fikrini kengaytirish mumkin.

5. Interaktiv texnologiyalar

Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar va ta'limga mo'ljallangan o'yinlar bolalarning qiziqishini oshiradi. Interaktiv texnologiyalar yordamida bolalar o'zlashtirishi kerak bo'lgan materiallarni o'yin tarzida o'rganishlari mumkin.

6. Qisqacha va izchil o'rgatish

Dars davomida bolalarni zeriktirmaslik uchun qisqa, aniq va qiziqarli mavzularni tanlash zarur. O'qitishning izchilligi va tartibi bolalarni chalg'itmaslikka yordam beradi.

7. Takrorlash va mustahkamlash

Bolalarga yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishda takrorlash juda muhim. Takrorlash yordamida bolalar o'rgangan narsalarini yanada mustahkam o'zlashtiradilar.

8. Jamoaviy ish

Bolalar guruhlarda ishlashni o'rganishlari va bir-birlariga yordam berishlari kerak. Bu usul bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Samarali o'qitish usulini tanlashda har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini va qiziqishlarini inobatga olish juda muhim.

O'qituvchilarning bolalarga bilim berishda yo'l qo'yadigan ayrim kamchilik va xatolarni yanada kengroq tahlil qilaylik:

1. Bolalarning individual xususiyatlarini e'tiborsiz qoldirish

Har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari mavjud. Agar o'qituvchi bu individual farqlarni hisobga olmasa, ta'lim jarayoni samarali bo'lmaydi. O'qituvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta'lim usullarini moslashtirish zarur.

2. Monologik uslubda o'qitish

Faqat o'qituvchining gapirishiga asoslangan darslar bolalarning faol ishtirokini cheklaydi. Interaktiv metodlar va o'quvchilarning fikrlarini tinglash muhimdir. O'quvchilarning fikrlarini tinglash va ularni muhokamaga jalb qilish, ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llamaslik

Zamonaviy ta'lim usullari va texnologiyalarni qo'llamaslik ta'lim sifatini pasaytirishi mumkin. Innovatsion metodlar va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish zarur. Bu o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini samarali qiladi.

4. O'qituvchining kasbiy malakasini oshirmaslik

Pedagoglarning o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari kerak. Aks holda, ular yangi ta'lim usullari va yondashuvlardan xabardor bo'lmay qoladilar. O'qituvchining kasbiy rivojlanishi, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

5. Emotsional salbiy muhit yaratish

Sinfda salbiy emotsiyalar, qichishish yoki norozilik muhitining mavjudligi bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhimdir. Bu o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta'lim jarayonini samarali qiladi.

6. O'quvchilarga baho qo'yishda adolatsizlik

O'quvchilarning mehnatini va yutuqlarini adolatli baholamaslik ularning motivatsiyasini pasaytiradi. Baho qo'yishda shaffoflik va adolat muhimdir. Bu o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ta'lim jarayonini samarali qiladi.

7. O'quv materiallarini qiyinlashtirish yoki soddalashtirish

O'quv materiallarini o'quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda tanlash zarur. Agar materiallar juda qiyin bo'lsa, o'quvchilar tushunmasligi mumkin; agar juda oson bo'lsa, ularning qiziqishi kamayadi. Materiallarning qiyinligi va murakkabligi o'quvchilarning bilim darajasiga mos bo'lishi kerak.

XULOSA: O'quvchiga ta'lim berish eng murakkab va nozik masala. Buning uchun o'quvchidan teran aql, metindek iroda, mehnat va sabr talab etiladi. Shuningdek, hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o'tkir zehni, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta'kidlanadi. O'quvchiga bilim berishdan avval o'zi bilimli va salohiyatli bo'lish lozim. Ustozlik qilish faqatgina o'quvchilarga dars o'tib oyligini olish emas balki bilimni o'quvchi tushunadigan usullarda yetkazib berishdir. Bu pedagog mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4 жилдли китоб. 1-китоб. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Арабчадан 3. Исмоил таржимаси. – Тошкент, Қомуслар бош таҳририяти, 1991. 14-бет.

2. Ergashev R.N , Abdukarimov X, Bolibekov A Umumiy pedagogika. o'quv uslubiy majmua. Guliston-2023

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 05.06.2018 yildagi PQ-3775-son

4. "Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy – innovatsion yondashuvlar" O'zbekiston Respublikasi miqiyosida 2019 yil 6 mayda o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari Toshkent 2019 8-b.

5. Основные идеи И.Г.Песталоцци. <http://uchitel76.ru/osnovnye-idei-i-g-pestalocci/>. Murojaat sanasi: 2016 yil 24 mart.

6. Shorustamova D.S. Boshlang`ich ta`lim darslarini integratsiyalashga pedagogik psixologik yondashuv. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2019.
7. Кукушин В.С., Болдырева-Вараксина А.В. Педагогика начального образования. / Под общ. ред. В.С.Кукушина. – М.: ИКЦ «март»; Ростов н/Д: Издательский центр «март»,2019.
8. Mavlonova R.A. Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo`llanma. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/33810>. Murojaat sanasi: 2018 yil, 24 mart.